

# Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi

**5111600- Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi-** umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq fanlari, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasini o'rgatish bo'yicha o'qituvchi tayyorlash jarayonida foydalaniladigan fanlar, pedagogik faoliyat vositalari, usullari, metodlari yig'indisidan iborat bo'lgan ta'lim yo'nalishidir.

## **5111600– Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining tavsifi**

### **4.1 Bakalavrning kasbiy faoliyat sohasi**

**5111600– Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi–** umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq fanlari, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasini o'rgatish bo'yicha o'qituvchi tayyorlash jarayonida foydalaniladigan fanlar, pedagogik faoliyat vositalari, usullari, metodlari yig'indisidan iborat bo'lgan ta'lim yo'nalishidir.

### **4.2 Bakalavrlarning kasbiy faoliyati obyektlari**

**5111600– Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi** ta'lim yo'nalishibakalavrlarning **kasbiy faoliyati obyektlari** – umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari, o'quvchilar, o'quv-tarbiya jarayoni, o'qitishning pedagogik texnologiyalari va metodlar jarayonidir.

### **4.3 Bakalavrlarning kasbiy faoliyati turlari**

**5111600– Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi** ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr o'z psixologik-pedagogik, kasbiy tayyorgarligiga muvofiq quyidagi kasbga oid faoliyat turlari:

*o'qituvchilik:* akademik litseylar kollej, umumta'lim maktablarida milliy g'oya huquq asoslari fani o'qituvchisi;

*tarbiyachilik:* ma'naviy va ma'rifiy ishlar tashkilotchisi, maktabdan tashqari muassasalarda faoliyat;

*o'quv-metodik:* ushbu yo'nalishlar bo'yicha ta'limni amalga oshiruvchi vazirliklar, uning tarmoq boshqarmalari va muassasalarida metodist vazifalarini bajarishi mumkin.

- *ilmiy-tadqiqot.*

Bakalavr tayyorlanadigan kasbiy faoliyatning muayyan turlari ta'lim jarayonining manfaatdor ishtirokchilari bilan hamkorlikda oliy ta'lim tizimi tomonidan aniqlanadi.

#### 4.4 Bakalavrlar kasbiy faoliyatining vazifalari

**5111600– Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr ta'lim dasturini o'zlashtirish natijasida kasbiy tayyorgarlikning asosiy turlari va maxsus tayyorgarligiga mos quyidagi kasbiy vazifalarni yechishi kerak:**

- **o'qituvchilik:** umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarda milliy g'oya, huquq asoslari, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasini o'rgatish bo'yicha o'qituvchisi bo'lib ishlash;

- **tarbiyachi-tashkilotchi;** umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlardan tashqari muassasalarda tarbiyachi bo'lib ishlash

- **ilmiy-tadqiqot** muassasalarida kichik ilmiy xodim bo'lib ishlash va boshqalar.

**-bolalar muassasalarida huquqshunos;**

-**o'quv-metodik.** mos ta'lim yo'nalishlar bo'yicha ta'limni amalga oshiruvchi vazirliklar, uning tarmoq boshqarmalari va muassasalarida metodist bo'lib ishlash